

“O‘zbektelekom” AKning 2024-yil faoliyati to‘g‘risidagi hisobot

Hisobot davrida “O‘zbektelekom” AK tomonidan olingan jami daromadlar (QQSsiz) 10 197 mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 121 foizni tashkil etdi.

1-jadval. Jami daromadlar tarkibi (QQSsiz), mln. co‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2023-yil amalda	2024-yil		Reja baj.%	O‘shish sur‘ati %
			reja	amalda		
1	Asosiy faoliyatdan olingan daromad	7 849 957	8 887 341	8 964 717	101%	114%
2	Boshqa daromadlar	198 965	86 453	166 015	192%	83%
3	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	367 437	670 757	1 065 883	159%	290%
	Jami	8 416 358	9 644 550	10 196 615	106%	121%

Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar 8 964,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi, biznes-rejaning bajarilishi 101 foizni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 14 foizni tashkil etdi.


Eksport xizmati ko‘rsatkichlarining bajarilishi

2024-yil yakunlari bo‘yicha Kompaniya tomonidan eksport xizmati rejasi 100 foizga bajarilgan.

Kompaniya xorijiy aloqa operatorlariga ko‘rsatiladigan xalqaro xizmatlar hajmini oshirish (tranzit xizmatini ko‘rsatish) orqali hamda xizmatlar sifatini oshirish maqsadida bir qator xalqaro kompaniyalar bilan imzolangan shartnomalar asosida xalqaro aloqa kanallari tezligi va hajmi oshirildi. Shuningdek, yangi hankorlar bilan imzolangan shartnomalar doirasida yangi yo‘nalishlardagi xalqaro Internet kanallar tashkil etildi.

Xalqaro paketli kommutatsiya markaziga ulangan operator va provayderlar uchun tashqi 1 Mbit/s Internet kanal narxi 30 025,96 so‘mgacha tushirildi.

1-diagramma. 1 Mbit/s tezlikdagi Internet narxining o‘zgarishi



Marketing faoliyatini takomillashtirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish choralari

2024-yilda "O'zbektelekom" AK va "O'zbekiston pochta" AJ, "Beelab" mobil ilovasi hamda "Alif Tech" tashkilotlari to'lov tizimlari o'rtasida UZTELECOM telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lovlarni qabul qilish xizmati bo'yicha shartnomalar imzolandi. Jumladan, "Oson Payments" MChJ (Qozog'iston) bilan UZTELECOM telekommunikatsiya xizmatlari uchun xorijiy davlatlardan to'lovlarni qabul qilish xizmati ishga tushirildi.

Shuningdek, "O'zbektelekom" AK tomonidan telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari, provayderlari va jismoniy shaxslarga xizmatlar ko'rsatish uchun infratuzilmani taqdim etish shartlari tasdiqlandi.

Kompaniyaning dilerlik tarmog'i orqali aholiga Internetga ulanish bo'yicha xizmatlar tashkil etildi.

"Virtual ofis", "Autsorsing", "Xabar qilish", "Teleovoz berish" xizmatlariga ulanish uchun onlayn arizalarni yuborish imkoniyati joriy etildi.

Data-markazi xizmatlaridan keng foydalanishni tashkil qilish maqsadida bir qator yangi xizmatlar va tariflar joriy qilindi. Jumladan, "Co-location", "Domen nomlarini yaratish va ro'yxatdan o'tkazish", "Telekommunikatsiya javonining ijarasi" xizmatlari tariflari tasdiqlandi.

"Videokuzatuv" xizmati joriy etildi. Bunda aholi turar joylarini xavfsizligini ta'minlash maqsadida, aholi tomonidan o'z uylari, uy atrofi va o'ziga lozim joylarni onlayn kuzatib borish imkoni yaratildi.

2024-yilda "TelecomTV" platformasida ko'rsatiladigan OTT-xizmatlarining tariflariga o'zgartirishlar kiritildi. Yangi "Setanta sports", «Milliy», "All inclusive", «Kino +» paketlari joriy etildi. Kundalik obunalarni rasmiylashtirish imkoniyati qo'shildi.

Internetga ulanish xizmatlarining «UNLIM» va «YANGI» ceriyali tarif rejalariga abonentlar uchun "TELECOM TV" platformasida 80 dan ortiq telekanallarni ko'rish imkoniyati qo'shildi.

Abonentlarini yangi texnologiyaga (GPON) ulash maqsadida 2024-yilda "Internetga ulanish va Wi-Fi routerga ega bo'ling" aksiyasi o'tkazildi.

Jismoniy shaxslar bo'lgan abonentlar uchun yangi HAMMASI BIRGA tariflari joriy etildi. Bunda abonentlar tomonidan Kompaniyaning barcha xizmatlariga yagona hisob orqali to'lovlarni amalga oshirish yaratildi.

2024-yilda Internet xizmatlarining yuridik shaxslar bo'lgan abonentlari uchun "Biznes uchun qulay tarzda Internetga ulanish" aksiyasi doirasida 100 metrgacha optik drop-kabel taqdim etilishi yo'lga qo'yildi.

Internet xizmatlarining jismoniy shaxslar bo'lgan abonentlari uchun "INTERNET+TV" aksiyaviy tarif rejasi joriy etildi. Tarif rejasiga ulanish 2024-yil 16-sentyabrdan 31-dekabrgacha bo'lgan davrda o'tkaziladigan aksiya doirasida amalga oshirildi. Aksiya shartlariga ko'ra, tarif rejasiga ulanish UZTELECOM sotuv va xizmat ko'rsatish ofislaridan birida SMART funksiyasiga ega televizor sotib olishda amalga oshirildi.

TelecomTV ilovasida taqdim etiladigan OTT xizmatlari tariflariga o'zgartirishlar kiritildi. Setanta sports paketiga obuna narxi pasaytirildi, shuningdek, yangi "Ultra premium" paketi joriy etildi.

2024-yil ko'ngillilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi GSM standartidagi mobil aloqa abonentlari uchun "VOLUNTEER" ixtisoslashtirilgan imtiyozli tarif rejasi joriy etildi.

GSM standartidagi mobil aloqa abonentlari uchun "Welcome Bonus" aksiyasi o'tkazildi. Aksiya doirasida "Barakali 33/44/55/77/111" tarif rejalariga ulanishda abonentlarga uch oylik qo'shimcha Internet-paketlar taqdim etildi. GSM standartidagi mobil aloqaning jismoniy va

yuridik shaxslar bo‘lgan abonentlari uchun “8 GB” va “21 GB” aksiyalari o‘tkazildi. Aksiyalar doirasida abonentlarga amal qilish muddati cheklangan Internet-paketlarni maxsus narxda faollashtirish imkoniyati berildi.

“O‘zbektelekom” AK mobil aloqa abonentlari uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali SIM-kartani eSIM texnologiyasiga almashtirish xizmati ishga tushirildi.

GSM standartidagi mobil aloqaning jismoniy va yuridik shaxslar bo‘lgan abonentlari uchun “Chiroyli raqamlarga chegirmalar” aksiyasi o‘tkazildi. Aksiya doirasida muayyan tarif rejalarga ulanishda pullik toifadagi raqamlarga 70-80% chegirma taqdim etildi.

MyUZTELECOM mobil ilovasi foydalanuvchilari uchun “Mobil bonuslar” aksiyasi joriy qilinib, unga ko‘ra abonentlar mobil ilovadan birinchi marta ro‘yxatdan o‘tganlarida, shuningdek, mobil ilovada oylik Internet-paketlarni ulaganlarida bonuslar taqdim etildi.

Hisobot davrida “O‘zbektelekom” AKning jami xarajatlari 2024-yilda 10 092,4 mlrd. so‘m bo‘lib, biznes reja 105 foizni tashkil etgan.

2-jadval. 2024 yil xarajatlari, mln. so‘m

Ko‘rsatkichlar nomi	2023-yil	2024-yil					O‘sinh sur‘ati %
		Reja	Amalda	Bajarilishi %	Farq	Xarajatlarning ulushi %	
A	1	2	3	4=3/2	5=3-2	6	7=3/1
Ishlab chiqarish xarajatlari	5 206 726	6 345 407	6 340 150	100%	-5 257	63%	122%
Davr xarajatlari, jami:	1 648 278	1 925 276	2 302 170	120%	376 894	23%	140%
Sotish xarajatlari	592 206	691 997	674 148	97%	-17 849	7%	114%
Ma‘muriy xarajatlar	480 590	555 921	556 687	100%	766	6%	116%
Boshqa operatsion xarajatlar	575 481	677 358	1 071 334	158%	393 977	11%	186%
Moliyaviy faoliyat xarajatlari	1 519 971	1 317 535	1 455 875	110%	138 340	14%	96%
Jami	8 374 975	9 588 218	10 098 194	105%	509 976	100%	121%

Kompaniya bo‘yicha ishlab chiqarish tannarxi xarajatlari 6 340 mlrd. so‘mni tashkil etib, biznes-rejada belgilangan ko‘rsatkichlar 100 foizga bajarildi. Jami xarajatlarning 63 foizini tashkil etadi.

3-jadval. Kompaniyaning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili, mln. so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil		Biznes-reja bajarilishi	O‘sinh sur‘ati
			reja	amalda		
1	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	7 849 957	8 887 341	8 964 717	101%	114%
2	Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	5 206 726	6 345 407	6 340 150	100%	122%

3	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi	2 643 230	2 541 934	2 624 567	103%	99%
4	Davr xarajatlari	1 648 278	1 925 276	2 302 170	120%	140%
5	Sotish xarajatlari	592 206	691 997	674 148	97%	114%
6	Ma'muriy xarajatlar	480 590	555 921	556 687	100%	116%
7	Boshqa operatsion xarajatlar	575 481	677 358	1 071 334	158%	186%
8	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	198 965	86 453	166 015	192%	83%
9	Asosiy faoliyatning foydasi	1 193 918	703 111	488 412	69%	41%
10	Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami	367 437	670 757	1 065 883	159%	290%
11	Dividendlar shaklidagi daromadlar	542	0	182 801	#DEL/0!	33721%
12	Foizlar shaklidagi daromadlar	366	4 577	16 088	352%	4397%
13	Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha daromadlar	0	0	0		
14	Valyuta kursi farqidan daromadlar	366 529	666 180	866 995	130%	237%
15	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	0	0	0	#DEL/0!	#DEL/0!
16	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, shu jumladan:	1 519 971	1 317 535	1 455 875	110%	95,8%
17	Foizlar shaklidagi xarajatlar	356 154	483 534	470 998	97%	132%
18	Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	14 745	1 266	1 123	89%	8%
19	Valyuta kursi farqidan zararlar	1 120 582	784 849	919 434	117%	82%
20	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	28 491	47 886	64 320	134%	226%
21	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	41 383	56 332	98 420	175%	238%
22	Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	41 383	56 332	98 420	175%	238%
23	Daromad (foyda) solig'i	15 985	16 336	56 790	574%	355%
24	Xisobot davrining sof foydasi (zarari)	25 398	39 996	41 630	90%	164%
	<i>Jami daromadlar</i>	<i>8 416 358</i>	<i>9 644 550</i>	<i>10 196 615</i>	<i>106%</i>	<i>121%</i>
	<i>Jami xarajatlar</i>	<i>8 374 975</i>	<i>9 588 218</i>	<i>10 098 194</i>	<i>105%</i>	<i>121%</i>
	<i>Sotuvlar rentabelligi</i>	<i>0,32%</i>	<i>0,52%</i>	<i>0,46%</i>	<i>89%</i>	<i>144%</i>
	<i>Xarajatlar rentabelligi</i>	<i>0,30%</i>	<i>0,48%</i>	<i>0,41%</i>	<i>85%</i>	<i>136%</i>

“O‘zbektelekom” AK tomonidan 2024-yil davomida 41,6 mlrd. so‘m miqdorida sof foyda olindi.

Kompaniyada amalga oshirilgan investitsiya loyihalari

“O‘zbektelekom” AK tomonidan 2024-yilda Investitsiya dasturi doirasida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan jami 356,8 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni o‘zlashtirish rejalashtirilgan.

2024-yil yakunida amalda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 418,6 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi (rejaga nisbatan 117%). Shundan, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 350,6 mln. AQSh dollari, “O‘zbektelekom” AK o‘z mablag‘lari hisobidan 68,0 mln. AQSh dollari ekvivalentida.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha:

I. Davlat kafolati ostida Yaponiyaning JBIC va MUFG banklari kredit mablag‘lari hisobidan 2022-2026 yillarda umumiy qiymati 157,3 mln. AQSh dollari bo‘lgan 3 ta loyiha

amalga oshirilishi rejalashtirilgan, shundan 2024 yilda 55,9 mln. AQSh dollari. Amalda 55,9 mln. AQSh dollari miqdorida kreditlar o'zlashtirildi (rejaga nisbatan 100%).

II. “O‘zbektelekom” AKning telekommunikatsiya infratuzilmasini sharqiy mintaqada yanada rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Loyi haning umumiy qiymati barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 194,37 mln. AQSh dollarini tashkil etadi, shundan 153,1 mln. AQSh dollari miqdoridagi Credit Suisse va Doychebank banklarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlari hisobiga. 2024 yil yakuniga amalda 71,09 mln. AQSh dollari miqdorida kreditlar o‘zlashtirilgan (rejaga nisbatan 100%). “O‘zbektelekom” AK o‘z mablag‘lari hisobidan 5,6 mln. AQSh dollari ekvivalentida qurilish, montaj ishlari amalga oshirilgan.

III. “O‘zbektelekom” AKning telekommunikatsiya infratuzilmasini g‘arbiy mintaqada yanada rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Loyi haning umumiy qiymati barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 183,48 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

2024-yil yakuniga amalda 69,61 mln. AQSh dollari miqdorida kreditlar o‘zlashtirilgan (rejaga nisbatan 100%). “O‘zbektelekom” AK o‘z mablag‘lari hisobidan 11,46 mln. AQSh dollari ekvivalentida qurilish, montaj ishlari amalga oshirilgan.

**“O‘zbektelekom” AK bo‘yicha 2024-yilda
Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarining bajarilishi to‘g‘risida**

№	Loyiha tashabbuskorlari va loyiha nomi	2024-yil		
		Reja	Amalda	Bajarilishi, %
	“O‘zbektelekom” AK bo‘yicha jami, shundan:	356,8	418,7	117%
1	“O‘zbektelekom” AK tomonidan ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlari (Data sentr)ni tashkil etish	13,5	13,5	100%
2	“O‘zbektelekom” AKning xalqaro paketli kommutatsiya markazlarini kengaytirish	20,0	20,0	100%
3	“O‘zbektelekom” AK ma’lumotlar uzatish tarmog‘i hamda telekommunikatsiya transport tarmog‘ini kengaytirish	22,4	22,4	100%
4	“O‘zbektelekom” AKning telekommunikatsiya infratuzilmasini sharqiy mintaqada yanada rivojlantirish	72,4	76,7	106%
5	“O‘zbektelekom” AKning telekommunikatsiya infratuzilmasini g‘arbiy mintaqada yanada rivojlantirish	72,5	81,1	112%
6	“O‘zbektelekom” AK telekommunikatsiya tarmoqlarida davlat va jamoat xavfsizligini ta’minlash	2,0	10,0	500%
7	“O‘zbektelekom” AK ning telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirish uchun Doychebankning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy kredit mablag‘larini jalb qilish	154,0	154,0	100%
8	“O‘zbektelekom” AKning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirgan loyihalari	-	41,0	

Qurilishlar manziliy ro'yxatiga va kapital ta'mirlash rejasiga kiritilgan loyihalarning bajarilishi

“O‘zbektelekom” AK tomonidan 2024-yil yakuniga ko‘ra 2024 yil qurilishlar manziliy dasturiga kiritilgan loyihalar doirasida jami 73 943 kmdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari tashkil etilgan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida Respublikamizning barcha hududlari bo‘ylab axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va keng polosali kirish tarmoqlari orqali aholini sifatli telekommunikatsiya xizmatlari bilan ta'minlash erishildi.

“O‘zbektelekom” AK tomonidan 2024-yil yakuniga tashkil etilgan OTAL bo'yicha ma'lumot

T/r	Hudud	Tortilgan OTAL uzunligi (km)
1	Toshkent shahri	3 682
2	Korakalpog'iston Respublikasi	7 009
3	Andijon viloyati	5 704
4	Buxoro viloyati	6 203
5	Jizzax viloyati	3 234
6	Qashqadaryo viloyati	6 431
7	Navoiy viloyati	3 521
8	Namangan viloyati	5 912
9	Samarqand viloyati	8 144
10	Surxondaryo viloyati	4 610
11	Sirdaryo viloyati	2 616
12	Toshkent viloyati	6 580
13	Farg'ona viloyati	6 146
14	Xorazm viloyati	4 151
Jami:		73 943

Taqdim etilayotgan aloqa xizmatlari sifati

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini va hajmini yanada oshirish maqsadida kompaniyaning 2023-yil 22-dekabrda 372-son buyrug'i bilan “O‘zbektelekom” AKda telekommunikatsiya tarmoqlarida texnik ekspluatatsiyani yaxshilash va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish” dasturi tasdiqlangan. Mazkur Dasturda belgilangan vazifalarga asosan telekommunikatsiya tarmog'idagi stansiya va liniya inshootlarini ta'mirlash, liniya-kabel xo'jaligini muhofazasini ta'minlash, aloqa kabellari va tarqatuvchi javonlarni profilaktika qilish va tartibga keltirish hamda boshqa bir qator ishlar olib borildi.

Olib borilgan ishlar natijasida 2 713 ta tarqatish javonlari, 45 714 ta YaKG/KRTlar, 27 000 ta telefon quduqlari, 55 088 ta aloqa ustunlari, umumiy uzunligi 3 552 km havo aloqa liniyalari va 3 161 km abonent kirish simlari, shuningdek, 1 900 ta optik javonlar, 8 700 ta FTTb javon hamda qurilmalar, 120 000 ta splitter, 6 100,5 km abonent kirish simlari texnik me'yorga keltirildi va ta'mirlandi.

Telekommunikatsiya tarmoqlarining liniya-kabel xo'jaliklarida o'g'rilik va uzilishlarni oldini olish masalasi:

Magistral va mahalliy aloqa liniyalari tarmog'ining butligini, liniya kabel ho'jaligini himoyasini taminlash maqsadida, MTP, QFY va MFY yig'inlarida “Aloqa kabellarining shikastlanishiga yo'l qo'ymang” mavzusida ommaviy uchrashuvlar tashkillashtirildi va

dalolatnoma/fotofaktlar asosida rasmiylashtirildi. Korxona, tashkilotlar hamda aholi o'rtasida keng qamrovli tushuntirish va ogohlantirish ishlarini olib borish maqsadida, "Aloqa kabellarining shikastlanishiga yo'l qo'ymang" rukni ostida Viloyat teleradiokompaniyalari bilan o'zaro kelishuv asosida 1 247 marotaba televideniya va radioeshittirishlar orqali teleroliklar uzatildi.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan tegishli tashkilotlarga magistral va tumanlararo tashkil etilgan optik tolali aloqa liniyalarini muhofaza hududlari yaqinida tegishli tashkilotlar hamda tuman hokimliklari tomonidan madaniy-maishiy inshootlar, turar-joy binolar uchun yer ajratish, obodonlashtirish ishlari uchun yer maydonlarida har qanday qurilish, qazish va tekislash ishlarini olib borish jarayonida, "O'zbektelekom" AK bilan kelishgan holda, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarga asoslanib, o'rnatilgan tartibda texnik shartlar orqali ishlarni olib borilishini ta'minlash lozimligi yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Aloqa liniyalar o'tgan hududlarda ogohlantirish va muhofaza ishlari olib borish bo'yicha (2024 yil boshidan hozirgi kungacha):

- 8 812 ta Qishloq xo'jaliklari va qurilish tashkilotlari ro'yxatga olinib ogohlantirish xatlari tarqatildi;
- 29 142 ta KM trassasi bo'ylab joylashgan, uy-joy yer egalari yozma ogohlantirish xatlar taqdim etilgan.
- 2 070 ta yangi ogohlantirish va o'lchov ustunchalari o'rnatildi;
- 3 000 ta yangi ogohlantirish belgilar (tablichka) o'rnatildi;
- 36 500 tasi ogohlantirish va o'lchov ustunchalari qayta ta'mirlandi;
- 10 450 tasi belgilar (tablichka) qayta ta'mirlandi;

Mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish va import hajmini optimallashtirish hamda tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish

"O'zbektelekom" AK tomonidan telekommunikatsiya xizmatlari importini optimallashtirish bo'yicha foydalanuvchilar uchun taqdim etilayotgan Internet xizmatlari sifatini yanada yaxshilash, tashqi internet kanallariga bo'lgan ehtiyojni ortib ketishini oldini olish hamda Kompaniyaning import harajatlarini kamaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududida "O'zbektelekom" AK Uz-IX piring markazi tashkil etilgan. Kompaniya tomonidan olib borilgan ishlar natijasida, Internet kanallari yuklamasining asosiy qismini tashkil etuvchi Google, YouTube, Yandex, Wargaming, IVI.ru, Facebook, Instagram, WhatsApp, Netflix, Microsoft kabi xorijiy kontent kesh serverlari Uz-IX piring markaz hududida mahalliyashtirilgan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2024 yil davomida Kompaniya Internet xizmatlari uchun 26,56 mln. AQSh dollari miqdorida import harajatlari tejab qolindi.

"O'zbektelekom" AK olib borgan mahalliyashtirish loyihalarini doirasida import o'rnini bosuvchi 15,3 mln. dollar miqdoridagi telekommunikatsiya mahsulotlari mahalliy tashkilotlar bilan o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzgan holda xarid qilgan.

Kadrlar strukturasi to'g'risida ma'lumot

2024-yilning yakunida jami xodimlar soni 16938 nafarni tashkil etib, ulardan 4203 nafari (25%) ayollar, 4184 nafari (25%) 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanadi.

4-jadval. Personal to'g'risida ma'lumot

Ma'lumoti bo'yicha	Ma'muriy boshqaruv xodimlari	Asosiy faoliyat xodimlari	Jami
--------------------	------------------------------	---------------------------	------

Oliy ma'lumotli	688	4 488	5 176
O'rta maxsus ma'lumotli	48	8 180	8 228
Umumiy o'rta ma'lumotli	0	3 534	3 534
Jami	736	16 202	16 938

2024-yil yakuni holatiga respublika va xorijiy o'quv markazlarida jami malaka oshirgan hamda qayta tayyorlangan xodimlar soni 4295 nafarni tashkil etib, 1501 mln. so'mdan ortiq miqdorda mablag' sarflangan. Shundan,

xodimlarni maqsadli tayyorlash bo'yicha:

respublika ta'lim muassasalarida – 39 nafar;

xorijiy ta'lim muassasalarida – 8 nafar;

malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha:

respublika malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv markazlarida - 4063 nafar;

xorijiy malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv markazlarida - 185 nafar.

Shuningdek, 12193 nafar xodimlar uchun Kompaniyaning o'zida seminarlar, konferensiyalar, jumladan onlayn seminar va videokonferensiyalar, chet tili va texnik o'quv mashg'ulotlari hamda amaliy tajriba orttirish mashg'ulotlari tashkil etildi.

5-jadval. Kadrlar malakasini oshirish hamda qayta tayyorlangan xodimlarning soni

T/r	O'quv muassasasi, malaka oshirish markazlari nomi	2024-yil rejasi	2024-yil bajarilishi	Bajarilishi %
		xodimlar soni	xodimlar soni	
1	Oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni maqsadli tayyorlash tadbirlari	22	47	214
2	O'quv markazlarida malaka oshirish tadbirlari	2 598	4 248	164
3	Korxonaning o'zida tashkil etiladigan o'quv kurslari va mashg'ulotlari	6 818	12 193	179
Jami		9 438	16 488	174

2024-yilda "O'zbektelekom" AK "Telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markazi" filiali tomonidan tashkillashtirilgan 155 ta malaka oshirish kurslarida jami 2241 nafar rahbar va muhandis-texnik xodimlar ishtirok etishdi. Ularning 2077 nafari "O'zbektelekom" AK tarkibidagi filiallar, 164 nafari boshqa korxona va tashkilotlar rahbar va muhandis-texnik xodimlaridir. O'quv kurslarini muvaffaqiyatli bitirgan mutaxassislariga "O'zbektelekom" AK sertifikatlari topshirildi. Shuningdek, joriy yilda tashkil etilgan 18 ta o'quv seminarida "O'zbektelekom" AK tarkibidagi filiallardan 2843 nafar rahbar va mutaxassis xodimlar ishtirok etdilar.

Filial tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida iqtisodiyotning turli sohalaridan, shuningdek axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasi korxona va tashkilotlarining yetuk mutaxassislari, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, turli o'quv markazlari mutaxassislari, yirik xorijiy kompaniyalarning mutaxassislari mos ravishda tegishli o'quv kurslarini o'tkazish uchun jalb qilinmoqda.

Shu bilan birga, Kompaniyada faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus ma'lumotli xodimlarning 664 nafari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallarida, 236 nafari Toshkent shahridagi Puchon universitetida turli yo'nalishlar bo'yicha sirtqi ta'lim shaklida tahsil olmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son Qarori tasdiqlangan. Mazkur qarorga Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy qilingan. Baholash natijalariga ko'ra "O'zbektelekom" AK (keingi o'rinlarda – Kompaniya) 2023-yil yakuniga ko'ra 83 ball va 2024-yil yakuni natijalariga ko'ra Kompaniya 82 ball to'plab "Yaxshi" ko'rsatkichga erishdi.

2024-yilning may oyida Kompaniyaning yangi tahrirdagi Ustavi asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari Agentligining <https://e-anticor.uz/> platformasida baholandi. Baholash natijalariga ko'ra Kompaniyaning 33 ta funksiyasidan korrupsiyaviy xavf-xatari "Yuqori" – 11 ta, "O'rta" – 19 ta va "Past" – 3 ta funktsiya aniqlandi.

"Yuqori" va "O'rta" darajadagi xatarlar asosan inson omili mavjud yani avtomatlashtirilmagan, qaror qabul qilishda bir kishi ishtirok etadigan va Kompaniya tomonidan tegishli ichki hujjat bilan tartibga solinmagan yoki tartibga soluvchi ichki hujjat "eskirgan" jarayonlarda vujudga keldi.

Aniqlangan xatarlar darajasini pasaytirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar rejasiga asosan 2025-yilning fevral oyida o'tkazilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko'ra "Yuqori" – 3 ta, "O'rta" – 9 ta va "Past" – 15 ta funktsiyalar tashkil qilgan. Bundan 2024-yil va 2025-yilda aniqlangan baholangan xavf-xatarlarni darajasi pasaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyunda qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni talablari asosida Kompaniyaning qator ichki hujjatlari qayta ishlab chiqildi va yangi tahrirda tasdiqlandi. Xususan, Kompaniya aksiyadorlarining 2024-yil 15-avgustdagi umumiy yig'ilishi (64-son bayonnomasi) qarori bilan "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Nizom yangi tahriri va Kompaniyaning 2024-yil 20-dekabrda 424-son buyrug'i bilan "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi xodimlari uchun odob-axloq qoidolari" yangi tahriri tasdiqlandi. Shuningdek "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnomaning yangi tahriri tasdiqlandi.

Kompaniyaning xaridlari jarayonini to'liq avtomatlashtirish maqsadida xarid qilinishi rejalashtirilgan tovar (xizmat, ish)larning texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va rasmiylashtirish tartibini Kompaniyaning 2024-yil 6-maydagi 127-son buyrug'i bilan tasdiqlandi. Tartibga asosan tovar (xizmat, ish)larni xarid qilish uchun Kompaniyada ishlab chiqilgan barcha Texnik topshiriqlar Kompaniyaning elektron hujjat almashinuv tizimida rasmiylashtirilishi va tegishli bo'linmalar nazoratdan o'tkazilishi shartligi begilab qo'yildi. Bugungi kunda Davlat xaridlari bo'yicha ishlab chiqilgan barcha texnik topshiriqlar Komplaens departamenti tomonidan tegishli tartibda Kompaniyaning elektron hujjat almashinuv tizimida o'rganib chiqilmoqda.

Shuningdek, Kompaniyaning 2024-yil 12-sentabrda 285-son buyrug'i asosida ISO 37001 standarti bo'yicha ichki audit o'tkazildi. Audit Kompaniya ijro apparatining 25 ta tarkibiy tuzilmalarini (2024-yilning 3-choragida amalda bo'lgan) qamrab olib audit natijalari bo'yicha 35 ta tafsila va 12 ta nomuvofiqlik bayonnomalari rasmiylashtirildi. Barcha nomuvofiqliklar o'rnatilgan tartibda bartaraf etildi. Shuningdek, tartibga solinmagan jarayonlar, tartibga soluvchi ichki hujjat eskirgan yoki aktualligini yo'qotgan jarayonlar, faqat bitta xodim qaror qabul qilish vakoliyatiga ega jarayonlar aniqlanib tegishli hisobot bilan rasmiylashtirildi. Natijada Kompaniyaning "Byudjetlashtirish to'g'risida"gi Nizomining yangi tahriri tasdiqlandi.

"O'zbektelekom" AK 2022-yil 5-sentabrda ISO:37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining xalqaro standartga muvofiqlik sertifikatini qo'lga kiritgan va sertifikat talablariga ko'ra 2024-yilning 14-15-noyabrda ISO:37001:2016 standarti talablariga ko'ra

Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ikkinchi kuzatuv auditidan muvofaqiyatli o'tdi.

Kompaniyaning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom asosida Kompaniya ijro apparatida 182 ta yillik, 29 ta ishga qabul qilingandagi va rotatsiya munosabati bilan 116 ta, jami 327 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiya to'ldirildi. Kompaniya filiallari boshqaruv xodimlari tomonidan 475 ta yillik, 737 ta ishga qabul qilingandagi va boshqa lavozimga o'tish munosabati bilan 602 ta, jami 1 814 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiya to'ldirildi. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalarini tahlil qilish natijasida Kompaniya filiallarining birida yaqin qarindoshlarning bir biriga to'g'ridan to'g'ri boysunuvi bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib Nizom talablari asosida tartibga solindi (xodim boshqa bo'limga ishga o'tkazildi).

2024-yil davomida tanlov, tender va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni rasmiylashtirishda jami 470 ta kontragent tekshirildi. Tekshiruv natijasida tegishli hulosalar berildi.

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha 2024-yil davomida umumiy o'quv kurslarda 945 ta va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus kurslarda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan 30 ta xodimning malakasi oshirilgan.

2024-yilda Kompaniyaning Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy va Xorazm filiallarida korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari talablari ijrosini monitoring qilish bo'yicha o'rganish olib borildi. O'rganish natijalari umumlashtirilgan holda Kompaniya rahbariyatiga taqdim etildi.

Shuningdek, Kompaniyaning "Bo'sh ish o'rinlariga ishga qabul qilinadigan shahslarning bilim va malakasini baholash bo'yicha doimiy komissiyasi", "Attestatsiya komissiyasi", "Mukofotlash bo'yicha komissiya" va "Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi" tarkibiga Komplaens departamenti vakillari kuzatuvchi sifatida kiritildi.